

**ALISHER NAVOIYNING “MUHOKAMAT-UL LUG’ATAYN” ASARIDAGI  
TERMINLAR XUSUSIDA****Ravshanova Kumush***Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug’atayn” asarida qo’llangan qarindosh-urug’, rang-tus, kasallik va zoonim nomlari tahlil qilingan. Bu so’zlarning hozirgi kunda qanday ma’no anglatishi borasida fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** Muhokamat-ul lug’atayn, lakuna, murg’obi, so’na, bo’rchin.

O’zbek adabiy tilining asoschisi, so’z mulkining sultonii, yirik mutafakkir va qomusiy olim, davlat arbobi, XV asrning buyuk filologi Mir Alisher Navoiy 1441-yilda Xuroson poytaxti Hirot shahrida tavallud topadi. To’liq ismi Nizomiddin Mir Alisher. Navoiy taxallusi ostida chig’atoy (eski o’zbek tili) hamda forsiyida (fors tilidagi asarlarida) ijod qilgan. Alisher Navoiy g’arbda chig’atoy adabiyoti hisoblanmish o’zbek adabiyotining yirik namoyandasidir. Umuman olganda butun turkiy xalqlar orasida Navoiy kabi yirik shaxs yo’qdur.

Navoiy yoshligidan Xurosonning bo'lajak hukmdori Husayn Boyqaro (1469-1506) bilan do’st bo’lgan. 10-12 yoshlaridan she’rlar yoza boshlagan. Navoiyning zamondoshi bo’lgan Xondamir (1473(76)-1534) qoldirgan ma'lumotlarga ko’ra, mashhur o’zbek shoiri Lutfiy (1369-1465) qarigan chog’larida Navoiy bilan ko'rishadi va uning she’riy iqtidorini yuqori baholaydi.

Navoiy bir qancha ilmiy asarlar yaratgan. Ular qatoriga fors va turkiy tillar qiyosi keltirilgan “Muhokamat-ul lug’atayn” asarini kiritishimiz mumkin. Ushbu asar hijriy 905, milodiy 1499-yilda yozilgan. Ulug’ ijodkor umrining so’nggi yillarida yaratgan bu kitobning ahamiyati beqiyosdir. Alisher Navoiy “Muhokamat-ul lug’atayn” misolida tilimizning badiiy imkoniyatlarini kashf etadi. Asarda keltirilgan so’zlarning aksariyat qismi hozirgi o’zbek tilida faol qo’llaniladi. Shu o'rinda asarda qo’llanilgan qarindosh-urug’, rang-tus, kasallik va zoonim nomlariga to’xtalib o’tsak.

Asarda qarindosh-urug’ nomlari quyidagicha ifodalangan.

Jadd — bobo

Obo — ota-bobolar

Valid — ota

Volida — ona

Ladxudo — er

Mavlud — tug'ilgan, yangi tug'ilgan, yosh bola

Tifl — yosh bola

Ushog’ — bola

Og'a — katta qardosh

Ini — kichik qardosh

Xohar (fors tilida)— qiz qarindosh

Egachi — katta qiz qarindosh  
Singil — kichik qiz qarindosh  
Opag'a — otaning og'a-inisi  
Tag'oyi — onaning og'a-inisi  
Em (fors tilida)— otaning og'a-inisi  
Xol (fors tilida)— onaning og'a-inisi  
Asarda rang-tus nomlari quyidagicha izohlangan  
Asfar — sariq rang, sarig'lik  
Lavn — rang-tus  
Loyih — ochiq rang  
Mutallavvin — rang-barang  
Shabgun — qop-qora  
Sufrat — sariq rang  
Savod — qora rang  
Siyoh jarda — qoramtil, qoracha  
"Muhokamat-ul lug'atayn" asarida kasalliklarning 2turi sanab o'tilgan:  
Laqva marazi — so'lak oqish kasalligi  
Toun — vabo kasalligi  
Asarda zoonim va qush nomlari quyidagicha izohlangan.  
Balobil — bulbullar  
Bahoyim — to'rt oyoqli hayvon  
Sibo — yirtqich hayvon  
Kulog' — qarg'a, quzg'un  
Xuna — erkak kiyik  
Qiloqchi — ayol kiyik  
Maral — ayol bug'u  
Do'non — otning turi  
Andalib — bulbul  
Gavazn (fors tilida)— bulbul  
Qobon — erkak to'ng'iz  
Megachin — ayol to'ng'iz  
Cho'rpa — to'ng'iz bolasi  
Xuk (fors tilida)— to'ng'iz  
Anodil — bulbullar  
So'na — erkak o'rdak  
Bo'rchin — ayol o'rdak  
Murg'obi (fors tilida)— o'rdak  
Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Muhokamat-ul lug'atayn" asaridagi terminlar izohlanadi. Asarni o'rganish davomida ba'zi so'zlar e'tiborimizni tortdi. Masalan sufrat, so'na, bo'rchin, qobon, megachin singari so'zlarning ma'nosi hozirgi o'zbek adabiy tilida saqlanmagan. Natijada lakuna hodisasi yuzaga kelgan. Tilshunoslikda avval iste'molda bo'lgan, bugungi kunda esa

boshqa so'z tarkibiga kirib, o'z tushunchasini yo'qotgan so'zlarga lakuna hodisasi deyiladi. Chunonchi, asardagi so'na — erkak o'rdak deya izohlanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa bu tushuncha yo'qolib, o'rdak so'zagina ishlataladi. Bundan tashqari Navoiy birgina o'rdakning turkiy tilda jo'rka, erka, suqtur, olmabosh, choqirqanot, temurqanot, aldaldag'a, olapuka, bog'chol, so'na, bo'rchin kabi 70 turi borligini sanab o'tib, forsiyda bularning hech biri uchramasligini va barchasi bir nom ostida murg'obi deb nomlanishini aytib o'tadi. Bir so'z bilan aytganda, Alisher Navoiy "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida turkiy tilning naqadar serqirra va boy ekanligini isbotlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Xondamir "Makorim ul-axlooq". Toshkent: Yoshlar nashriyoti 2018
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-2-jild. Toshkent 2005
3. Alisher Navoiy "Muhokamat-ullug'atayn". Toshkent 2001
4. Hojiyev Azim "Tilshunoslikterminlarining izohli lug'ati". Toshkent